

## KANZAS UNIVERSITETI HUQUQ MAKTABI (ADSH) VA TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI O'RTASIDA ANGLASHUV SHARTNOMASI

AQSHning Kansas shtati Lorens shahridagi Kansas universiteti va O'zbekiston Respublikasining Toshkent shahridagi Toshkent davlat yuridik universiteti o'rtasida 2023-yil 29-martda Madaniy, ta'lim va fan sohasida hamkorlik to'g'risida Shartnoma ("Hamkorlik shartnomasi") tuzilgan bo'lib, shuningdek

Hamkorlik shartnomasi doirasida Kansas universiteti o'zining Huquq fakulteti ("KU huquq maktabi") orqali va Toshkent davlat yuridik universiteti ("TDYU") (keyingi o'rinlarda birgalikda "Tomonlar") bilan birgalikda TDYUning ma'lum malakali bakalavriat talabalariga ularning bakalavriat bosqichida o'qish davrining bir o'quv yili davomida KU huquq maktabining Amerika huquqiy tadqiqotlari yo'nalishida magistratura darajasini olish imkonini berish bo'yicha talaba almashinuvi dasturini tashkil qilishga kelishildi, hamda

Tomonlar bunday dasturni ishga tushurishga kelishib oldilar;

Shu boisdan, Tomonlar endilikda mazkur Anglashuv shartnomasi ("Shartnoma")ni imzolashga va quyidagi shartlarga rozilik bildiradilar:

### I. AMERIKA HUQUQIY TADQIQOTLARI MAGISTRATURA DASTURI

- A. **Maqsad.** Dasturning maqsadi bakalavriatining uch (3) yillik o'quv davrini tamomlagan TDYUning malakali bakalavriat talabalariga o'qishning so'ngi yilini davom ettirish uchun KU huquq maktabining Amerika huquqiy tadqiqotlari magistratura dasturiga hujjat topshirish va o'qishga kirishga ruxsat berishdir. TDYUning bakalavriat talabari KU huquq maktabida Amerika huquqiy tadqiqotlari magistratura dasturini tamomlash uchun barcha shartlarni bajarganda, shuningdek TDYUning bakalavr bosqichini tamomlash uchun belgilangan barcha shartlarni bajarganlarida TDYUning bakalavr darajasi hamda KU huquq maktabining magistr darajasin oladilar.
- B. **Muvofiqlik.** Mazkur dasturga hujjat topshiruvchi talabalar KU huquq maktabi o'quv dasturi boshlanadigan vaqtda quyidagi barcha shartlarda javob berishlari lozim bo'ladi:
1. Bakalavr darajasini olish uchun TDYU tomonidan belgilangan shartlarning to'rt dan uch qismini bajargan bo'lishi lozim (TDYUda uch (3) yil bakalavr bosqichida o'qigan bo'lishi yoki buning muqobili);
  2. KU huquq maktabi tomonidan tashkil etilgan va vaqti-vaqti bilan o'zgartirilishi mumkin bo'lgan va [www.law.ku.edu](http://www.law.ku.edu) veb-saytida joylashtirilgan Amerika huquqiy tadqiqotlari o'quv dasturiga kirish talablariga to'liq javob berish.
- C. **Qabul.**
1. Mazkur dasturga hujjat topshiruvchi talabalar barcha hujjatlarni TDYUga topshiradilar. TDYU esa KU huquq maktabi shartlariga asoslangan holda talabga javob beradigan eng kuchli nomzodlarni saralab olishi lozim. TDYU mazkur dasturga hujjat topshirgan talabalarining nomzodini tasdiqlovchi tasdiq xatini bakalavr darajasini olish uchun belgilangan shartlarning to'rt dan uch qismini bajarganligini tasdiqlovchi sertifikat bilan birga to'g'ridan-to'g'ri KU huquq maktabining Qabul masalalari bo'yicha Direktoriga taqdim qilishi lozim.

2. Yuqoridagi bandeda belgilangan tasdiq sertifikatiga sosl原因an holda KU huquq maktabi mustaqil ravishda KU huquq maktabining standart amaliyotidan kelib chiqib, hujjat topshiruvchilarning KU huquq maktabiga almashinuv talabasi sifatida qabul qilish masalasini hal etadi. KU huquq maktabiga topshirish uchun Inqilaz tilini bilish darajasiga qo'yilgan talablar quyiydagi veb-saytda keltirilgan, <https://law.ku.edu/apply-llm-international#english>.
  3. Hujjat topshiruvchi talabalar har ikki Tomonlarning tasdig'i asosidagina mazkur dasturga o'qishga qabul qilingan hisoblanadi.
  4. Mazkurga dasturga qabul qilinadigan talabalar soni har bir o'quv yili uchun 8 (sakkiz) nafar etib belgilanadi.
- D. Moliyaviy mulohazalar va kelishuvlar.** Dasturdagi talabalar Tomonlar yoki ularning tegishli universitetlari tomonidan belgilangan barcha daraja talablarini bajarish bilan bog'liq barcha o'qish, to'lovlar, xarajatlar va kelishuvlar uchun, jumladan, cheklanmagan holda, barcha sayohat, vizalar, turar joy, sug'urta, darsliklar, materiallar va boshqa zarur xarajatlar va tadbirlar uchun mas'ul bo'ladi.
- E. Amerika huquqiy tadqiqotlar Magistri va Bakalavr darajalarini berish.**
1. **E. Amerika huquqiy tadqiqotlar Magistri darajasini berish.** Dastur talabasi KU huquq maktabi tomonidan Amerika huquqiy tadqiqotlari magistratura dasturini tamomlash uchun belgilangan barcha talablarni qondirgan taqdirda, ushbu holat KU huquq maktabi tomonidan o'z xohishiga ko'ra belgilanishini inobatga olgan holda, KU huquq maktabi bu haqda TDYU va talabani xabardor qiladi. Talaba Amerika huquqiy tadqiqotlari magistratura dasturi doirasida diplom olishi uchun TDYU ushbu talabaning Bakalavr bosqichini tamomlash uchun barcha talablarni bajarganligini tasdiqlovchi hujjatni KU huquq maktabiga taqdim qilishi lozim bo'ladi.
  2. **Huquq Bakavri darajasini berish.** TDYU talabaning Amerika huquqiy tadqiqotlari magistratura dasturini tamomlashiga qadar Huquq bakalavri darajasini berish uchun zarur bo'lgan barcha shartlarni ishlab chiqish uchun mas'ul hisoblanadi. Agar dastur talabasi Amerika huquqiy tadqiqotlari dasturi bo'yicha magistratura dasturining talablariga javob bermasa, TDYU o'z xohishiga ko'ra Bakalavr darajasini berish uchun zarur bo'lgan shart sifatida Amerika huquqiy tadqiqotlari dasturi bo'yicha magistrlik dasturi doirasida bajarilgan ishlar uchun qisman yoki to'liq kreditdan voz kechish to'g'risida qaror qabul qilish huquqiga ega.

## II. QO'SHIMCHALAR

- A. **Rahbariyat kafolati.** Tomonlarning har biri ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish va bajarish uchun tegishli universitet va boshqa amaldagi hokimiyat organlari uchun zarur bo'lgan barcha ruxsatnomalarni olganligini e'lon qiladi va kafolatlaydi.
- B. **Kuchga kirishi; Amal qilishi.** Shartnoma oldingi (D) bandeda keltirilgan holat doirasida bekor qilinmasa, tomonlar imzolashi bilan kuchga kiradi va besh (5) yil amal qiladi.
- C. **Shartnomaga o'zgartirishlar kiritish.** Shartnomaga yozma o'zgartirishlar Tomonlarning kelishuviga ko'ra istalgan vaqtda kiritilishi mumkin.
- D. **Shartnomaning tugatilishi.** Shartnoma (i) tomonlarning yozma kelishuviga ko'ra istalgan vaqtda; (ii) tomonlarning biri tomonidan kamida olti (6) oy oldin yuborilgan yozma ogohlantirishdan so'ng; (iii) Hamkorlik Shartnomasining o'z muddati tugashi yoki ertaroq

tugatilishi bilan bekor qilinishi mumkin.

- E. **Tomonlar hamkorlar hisoblanmaydi; Benefitsiarlar mavjud emas.** Ushbu shartnoma taraflari o'zlarini "sheriklar" deb hisoblamaydilar va Sheriklar sifatida ko'rib chiqilmaydi, chunki "sheriklik" tushunchasi tomonlarning o'z mamlakatlari sheriklik to'g'risidagi qonuniga asosan belgilanadi. Shu bilan shartnoma faqat tomonlarning o'zaro manfaati uchun mo'ljallanganligini va hech qanday foydali huquqlarni yaratmasligini yoki tomonlarning talabalar yoki boshqa uchinchi shaxslar oldida hech qanday majburiyatlarini yuklamasligini anglatadi.
- F. **Nizolarni hal qilish.** Tomonlar Shartnoma bo'yicha o'zaro manfaatlarini hisobga olgan holda, o'zlarining tegishli huquqlari va majburiyatlari bilan bog'liq har qanday nizolar, da'volar yoki masalalarni hal qilish uchun bir-birlari bilan maslahatlashish uchun barcha sa'y-harakatlarni amalga oshirishga rozilik bildiradilar. Agar tomonlar har qanday nizoni o'z vaqtida va o'zaro maqbul tarzda hal qila olmasalar, ushbu shartnomaning amal qilish muddati yuqoridagi II(D) bandga muvofiq bekor qilinishi mumkin.
- G. **Nusxalar.** Ushbu shartnoma ikkitadan Ingiliz va O'zbek tillarida asl nusxada tuzilgan bo'lib, ularning Ingiliz tilidagi nusxasi ustun hisoblanadi. Tomonlarning har biri saqlash uchun ushbu shartnomaning birtadan nusxasini olib qoladi.

Tomonlar quyida ko'rsatilgan imzo sanasida ushbu hujjatda ko'rsatilgan shartlar va holatlarga rozi bo'lishadi.

**Tomonlarning vakillarining imzolari:**

KANZAS UNIVERSITETI NOMIDAN

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI  
NOMIDAN

\_\_\_\_\_  
Douglas A. Girod, M.D.  
Kansler



\_\_\_\_\_  
Islambek Rustambekov  
Rektor v.v.b.

Date: \_\_\_\_\_

Date: \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_  
Stephen W. Mazza  
Dekan, Huquq professori

\_\_\_\_\_  
Baxshillo Xodjayev  
Prorektor

Sana: \_\_\_\_\_

Sana: \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_  
Charles A.S. Bankart  
Xalqaro bo'lim katta xodimi

Date: \_\_\_\_\_

Date: \_\_\_\_\_